

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**



30-oktabr 2025-yil

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili) ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni dasturi**

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2025-yil 28-oktabrdagi 4-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar: S.X. Muhamedova, fil.f.d., professor

K.M. Mavlonova ped.f.d.(DSc), professor

KIRISH

Ta'lim va tarbiyaning ilmiy asoslangan tizimi, uning yangi metodlarini yaratish nazariy tadqiqotlar jarayonida pedagogik hodisalarni anglanishidir. Faqatgina ushbu asosda pedagogik faoliyatning istiqbolli yo'nalishini to'liq idrok etish, ilmning amaliyotga ta'sirini ta'minlash mumkin. Xususan, ta'lim va fanning globallasuvi va internatsionallasuvi negizida xalqaro oliy ta'lim makoni shakllanib, u pedagogik tadqiqotlarning obyekti bo'lishi mumkin. Shubhasiz, bunday tadqiqotlarning vazifalaridan biri mazkur fenomen mohiyati, qonuniy aloqalari, uning faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy-madaniy omillarni aniqlashning muhim ahamiyat kasb etishida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqotlarda tendensiyalar, muqobil rivojlanish variantlarini bashoratlash hamda xalqaro ta'lim makonining madaniy-tarixiy paradigmasi, ijtimoiy-madaniy mohiyati, qadriyatlar dinamikasi va taraqqiyot strategiyalarining turli me'yoriy modellarini ilmiy asoslash va loyihalashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ona tili ta'limi oldiga o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yilgan. Mazkur maqsadni amalga oshirish, o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini talab darajasida shakllantirishda til o'qitish nazariyasi, tilshunoslik va didaktika integratsiyasi bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qila olish kompetensiyasiga ega bo'lish, ona tili ta'limini tashkil etish, boshqarishning alohida o'rni bor. Buning uchun talabgorga zamonaviy lingvodidaktika g'oyalari, lingvodidaktika tarixi, lingvodidaktikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, lingvodidaktikaning psixologik va psixolingvistik, didaktik asoslari, prinsiplari, til o'qitishda milliy va xorijiy metodikaning ilg'or tendensiyalari, ona tili va ikkinchi tilni o'qitishdagi o'ziga xos farqli jihatlar; til o'qitishdagi o'quv jarayoni va o'quv materiallarini tahlil qilishga oid ilmiy mushohadaga ega bo'lishi talabi qo'yiladi.

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi (o'zbek tili) bo'yicha tuzilgan mazkur dastur ona tili ta'limining nazariy-fundamental muammolarni tushunish, ularni tahlil eta olish va hal etishga nisbatan shakllangan yondashuvlar haqidagi tasavvurlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Bunda ixtisoslik tarkibidagi har bir fan sohasi bo'yicha quyidagi mavzuviy yo'nalishlarda izlanuvchi mustaqil ravishda o'z bilimni chuqurlashtirishi ko'zda tutiladi:

- ilmiy-pedagogik tadqiqot mohiyati;
- pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari;
- til o'qitish nazariyalari;
- “til o'rganish” va “tilni o'zlashtirish” tushunchalari;
- O'zbekistonda ona tilini birinchi til va ikkinchi til va xorijiy til sifatida o'qitish;
- til ta'limini tashkil etish tamoyillari;
- til o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash mazmuni;
- lingvistik bilimni kontekstda asosida o'qitish mazmuni;
- ona tili ta'limi jarayonini texnologiyalash;

- o‘quv ishlarini loyihalashtirish;
- til ta’limida baholash mezonlari va xorijiy tajriba;
- pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va samaradorligini baholash.

1-QISM. NAZARIY-METODOLOGIK YO‘NALISH

“Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Davlat tili haqida”gi, “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining mohiyati va ahamiyati haqidagi fikrlar. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonning mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim hamda maktabgacha va maktab ta’limi samaradorligini oshirishga oid Farmonlari, nutqlari mohiyati.

Ta’lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash, shu orqali dunyoning boshqa mamlakati bilan solishtirma tahlillarni olib borish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mohiyati.

Ona tili va ikkinchi tilni o‘qitishning nazariy asoslari, til ta’limi metodologiyasining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, lingvodidaktikaning predmeti va vazifalari, til o‘qitish metodikasining ilmiy kategoriyalari, milliy qadriyatlar va til siyosati o‘rtasidagi uyg‘unlik, metodik paradigmalarning rivojlanish bosqichlari hamda ilmiylik va amaliyot uyg‘unligi, innovatsion yondashuvlar orqali til ta’limining zamonaviy modelini shakllantirish masalalari.

2-QISM. TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI YO‘NALISHI

Til o‘qitish nazariyalari: ilmiy-tadqiqiy, nazariy-falsafiy, qadriyatlarga asoslangan va badiiy-amaliy konsepsiya. Tilga, o‘rganuvchiga va o‘rganish jarayoniga asoslangan metodlar. Til ta’limidagi makrostrategiyalar. B.Kumaravadiveluning postmetod ta’lim haqidagi qarashlari. Til malakalari integratsiyasi. Tabiiy tartib giopezasi haqida ma’lumot. Ona tili o‘qitishning umumdidaktik va o‘ziga xos tamoyillari, Ona tilini o‘qitishdagi yondashuvlar. Til o‘qitishdagi yondashuvlar, tarixi rivojlanishi yutuq va kamchiliklari. Til o‘qitishdagi yondashuvlarning ona tilini o‘qitishga xoslanishi. Ona tilini o‘qitish metodlari tasnifi, turlari va mazmuni. Ona tilini o‘qitishning maqsadi va vazifalari. Til ta’limi muhitini yaratish. Nazariy bilim va amaliy nutq faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Ona tili ta’limi orqali shaxs ma’naviyatini shakllantirish yo‘llari. Til o‘qitish jarayonida axloqiy va estetik qadriyatlarni singdirish yo‘llari. Ikkinchi til o‘rganishda tolerantlik va madaniyatlararo muloqotning tarbiyaviy ahamiyati. Ona tili ta’limida milliy g‘oya va vatanparvarlik tarbiyasining o‘rni. Til darslarida ma’naviy tarbiya berishning metodik usullari. Ikkinchi tilni o‘rgatishda madaniy kontekstni hisobga olishning pedagogik zarurligi. Ona tili ta’limida nutq madaniyati va axloqiy fazilatlarini shakllantirish yo‘llari. Til o‘qitishda o‘quvchi shaxsiga individual yondashuvni amalga oshirish usullari. Ona tili darslarida

ijtimoiy faollikni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati. Ikkinchi til o'rganishda madaniy identifikatsiya jarayonining psixopedagogik jihatlari. Til ta'limi orqali milliy birlik va fuqarolik ongini shakllantirish yo'llari. Ona tili ta'limida o'qituvchi shaxsining tarbiyaviy roli. Ikkinchi tilni o'rganishda ijobiy motivatsiyani tarbiyalash usullari. Til darslarida ijtimoiy-emotsional o'rganishning tarbiyaviy ta'siri. Ona tili ta'limida estetik tarbiyaning pedagogik asoslari.

3-QISM. PEDAGOGIK TADQIQOT METODOLOGIYASI YO'NALISHI

Til o'qitish metodikasida ilmiy-tadqiqot jarayonining bosqichlari. Ona tili o'qitishdagi muammoni ilmiy nuqtayi nazardan aniqlash usullari. Til o'rganish jarayonida kuzatuv va tajriba metodlarining o'ziga xosliklari. Til o'qitishdagi empirik tadqiqotlardan olingan natijalarni tahlil qilish usullari. Ikkinchi tilni o'rganish bo'yicha eksperimental tadqiqot loyihasi tuzish bosqichlari. Til ta'limida ilmiy gipoteza yaratish va uni tekshirish jarayoni. Til o'qitishdagi sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari. Til o'rganishdagi motivatsion omillarni aniqlash bo'yicha so'rovnoma tuzish usullari. Ona tili ta'limida tadqiqot natijalarini tahlil qilishda statistik usullardan foydalanish imkoniyatlari. Til ta'limi bo'yicha dissertatsiya ishining tarkibiy qismlari. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari. Til ta'limi sohasidagi innovatsion tadqiqot yo'nalishlari. Ona tili o'qitish metodikasida tadqiqot etikasi tamoyillari. Til o'qitish bo'yicha ilmiy maqola yozish jarayonining bosqichlari. Ikkinchi tilni o'rgatish tadqiqotlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish usullari.

4-QISM. PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA YO'NALISHI

Ona tili o'qitishda tilni o'zlashtirish jarayonining psixologik mexanizmlari. Ikkinchi tilni o'rganishda motivatsiya va ehtiyoj o'rtasidagi bog'liqlik. Ona tili darslarida bilish jarayonlarini faollashtirish usullari. Ikkinchi til o'rganishda individual farqlarni hisobga olishning psixologik asoslari. Tilni o'zlashtirishda diqqat va xotiraning roli. Ona tili darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik shartlari. Ikkinchi tilni o'rganishda affektiv omillarning ahamiyati. Til o'qituvchisining kommunikativ madaniyati va empatiya qobiliyatining psixologik ahamiyati. Ona tili o'rganishda o'z-o'zini baholash va refleksiya jarayonining psixologik asoslari. Til o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning psixologik jihatlari. Ikkinchi tilni o'rganishda stress holatlarini yengishning psixologik yo'llari. Ona tili o'qitishda o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish psixologiyasi. Ikkinchi tilni o'rganishda metakognitiv strategiyalarning psixologik asoslari. Til ta'limida o'zini boshqarish va o'zini rag'batlantirish ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari. Ona tili o'qituvchisining psixologik kompetensiyasi va kasbiy barqarorligi.

5-QISM. ZAMONAVIY TA'LIM TENDENSIYALARI VA METODKA YO'NALISHI

Ona tili o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari. Ikkinchi til o'qitishda masofaviy ta'limning afzalliklari. Til o'rganishda "hayot davomida ta'lim olish" g'oyasining dolzarbligi. STEAM asosida til o'qitishning didaktik imkoniyatlari. Inklyuziv ta'limda til o'qituvchisining roli va metodik yondashuvlari. Ona tili ta'limida gender tenglik va inklyuzivlik tamoyillari. Ikkinchi til o'rganishda madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirish strategiyalari. Til o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Ona tili ta'limida onlayn platformalar orqali o'qitish tajribalari. Til o'rganish jarayonida "gamifikatsiya" texnologiyasining samaradorligi. Ona tili va ikkinchi til o'qitishda raqamli baholash tizimlari. XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda til o'qituvchisining roli. Til ta'limi jarayonida sun'iy intellektga asoslangan o'qitish modellari.

Ona tili darsini rejalashtirishda til ko'nikmalarining uzviyligini ta'minlash yo'llari. Ikkinchi tilni o'rgatishda kommunikativ vazifalarga asoslangan mashqlar. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari. Til o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etish yo'llari. Ikkinchi tilni o'rganishda refleksiya mashqlarining ahamiyati. Ona tili darslarida o'qitish strategiyalarini tanlash mezonlari. Til o'qitishda tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish mashqlari. Ona tili o'qituvchisining dars monitoringi jarayonidagi faoliyati. Ikkinchi tilni o'rgatishda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini baholash usullari. Ona tili darslarini loyihaviy o'qitish asosida tashkil etishning afzalliklari. Ona tili ta'limida nutqiy malakalarni baholash mazmuni, shakllari va mezonlari. O'quvchilar bilimini nazorat qilishda qo'llanadigan texnologiyalar. Test, testlarning turlari va ularni tashkil qilish texnologiyasi.

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili) ixtisosligi bo'yicha kirish imtihon dasturi yuzasidan o'qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni // Xalq so'zi. – Toshkent, 2019-yil 30-aprel. № 88 (7318).

2. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги "Таълим тўғрисида"ги ЎРҚ – 637-сон Қонуни. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. <https://lex.uz/docs/5013007>.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида"ги ПФ-4797-сонли Фармони // Халқ сўзи, 2016 йил 14 май, № 94 (6529).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-oktyabrdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884?ONDATE2>

5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 16 январь сони.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.

7. ЎзР Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 46 б.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs>

9. Умумий ўрта таълим ўқув дастури. Она тили // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999, 1-махсус сон. – Б. 55–138.

10. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2017. – 69 b.

11. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi loyihasi. Ona tili. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2020.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6008663>

II. Ilmiy-metodik adabiyotlar:

1. Azimova I. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi (Til ta’limiga oid fanlar moduli). Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “HILOL-NASHR”, 2020. 96 b.

2. Abdurahim Sh. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, – 2021. 126 b.

3. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.

4. Gillian, L. Literature and Language Teaching. A Guide for Teachers and Trainers. 23rd edition. – Cambridge. Cambridge University Press, 2013. – P. 284.

5. Kumaravadivelu, B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press. 2003.

6. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

7. Mavlonova K. va b. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (filologiya fanlari). Metodik qo'llanma. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 154 b.
8. Roziqov O.R., Mahmudov M.H. va b. Ona tili didaktikasi. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 382 b.
9. Jack C Richards and Willy A. Renandya (Eds). Methodology in language teaching an anthology of current practice. Cambridge University Press, 2003.
10. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
11. Yo'ldosheva D., Hamroyeva Sh., Bozorova N. Ona tili ta'limi maqsadi va o'zbek tili doimiy anjumani. – Toshkent: Turon Zamin Ziyoy, 2016. – 92 b.
12. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2021.
13. Алаутдинова Н.Ф. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси (5-синф мисолида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 156 б.
14. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқлардан фойдаланиш: Пед. ф. ном. ... дисс. – Бухоро, 1996. – 144 б.
15. Ворожцова И.Б. Основы лингводидактики. Учеб.пособие. – Ижевск, Удмуртский государственный университет, 2007. – 113 с.
16. Ғуломов А.Қ. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 92 б.
17. Зиёдова Т.У. Она тили таълим жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш: Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.
18. Зиёдова Т.У. Матн яратиш технологияси. Монография.–Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
19. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004.
20. Йўлдошев Р.А, Рихсиева М.М. Иншолардаги матний хатолар, уларни тузатиш методикаси. –Тошкент, 2018.
21. Қурбонова Х. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: Пед.фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.
22. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.ф.д. дисс... (PhD). – Тошкент, 2019.
23. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Anorbooks, 2023. 256 b.
24. Мирмахсудова М. Ўқувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишнинг лингвометодик асослари (5-7-синф она тили дарслари мисолида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 160 б.

25. Охунжонова О.А. Таълим босқичларида синонимлар мавзусини ўқитиш методикаси (умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълими мисолида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 148 б.
26. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1999. – 123 б.
27. Сатторова Н. Ўқувчиларнинг иншо ёзиш малакаларини такомиллаштириш (5-синфда она тили ўқитиш жараёнида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.
28. Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Тошкент: Фан, 1995. – 108 б.
29. Таълим бўғинларида она тили ўқитиш мазмунини янгилаш асослари. ЎТДА 2-йиғини тезислари. – Қарши, 1993. – 172 б.
30. Таълим жараёнида ижодий тафаккурни ривожлантириш масалалари / “Ўзбек тили” доимий анжуманининг олтинчи йиғини материаллари. – Тошкент: 2001. – 97 б.
31. Турдиев Н., Асадов Ю., Темиров Д. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. – Тошкент: Т.Н.Қори Ниёзий номидаги ЎзПФТИ, 2015. – 160 б.
32. Ўзбек мактабларида она тили таълими концепцияси // Тил ва адабиёт таълими. – 1994. – № 1. – Б. 8-13.
33. Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш, Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2019.
34. Ҳамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш. Пед. фан.док-ри ... дисс. – Т., 2020. – 248 б.
35. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.
36. Юсупова Ш. Тил таълими ва фалсафа. – Андижон, 2009. 100 б.
37. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 279 б.
38. Shermuhammedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent, 2020. – 464 b.
39. Xodjayev B. va b. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot dunyosi, 2018. – 190 b.

III. Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. – Toshkent, 2019.

2. Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007.
3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., D.Mannopova. To'la yangilangan 5-nashr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 192 b.
4. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.
5. Mavlonova K. va b. Ona tili ta'limida grammatik yondashuv mohiyati. "Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani mater. – Toshkent, 2024. – B. 17–22.
6. Mengliyev B.v.b. Ona tili. 2-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 96 b.
7. Mahmudov N. v.b. Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 b.
8. Mengliyev B.v.b. Ona tili. 2-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 96 b.
9. Mengliyev B., Baxriddinovna B. Ona tili ta'limi: uzluksiz ta'lim bosqichlarida chalkashlik uchramayaptimi? Til va adabiyot ta'limi, 2015-yil, 2-son, 8-12-b.
10. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. – Toshkent: Tasvir, 2017. – 208 b.
11. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
12. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
13. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashr. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 160 b.
14. Ona tili. 10-sinf uchun metodik qo'llanma / B. Mengliyev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.
15. Ona tili. 6-sinf uchun metodik qo'llanma / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.
16. Ona tili. 7-sinf uchun metodik qo'llanma / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.
17. Менглиев Б., Сувонова Х. "Она тили"ни эмас, "Она тили"дан ўргатиш керак. Ўзбекистон: тил ва маданият. Ўзбек тили таълими. – Тошкент, 2017. – 170 б.

18. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Yangi nashr/ B.Mengliyev va b. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.

19. Ona tili 5-sinf (1-qism) [Matn]: darslik / K.M. Mavlonova, N.S. Hakimova, M.R. Siddiqov, S.H. Qo'ldosheva; muharrir O.T. Madvaliyev. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 144 b.

20. Mavlonova K. M. Ona tili. 5-sinf (II qism): darslik / K. M. Mavlonova, S. H. Qo'ldosheva, N. S. Hakimova, M. R. Siddiqov. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 160 b.

21. Ona tili 8-sinf [Matn]: darslik / Klaraxon Mavlonova [va boshq.]; muharrir O. Madvaliyev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 224 b.

22. Ona tili. 9-sinf [Matn]: darslik/ Shohrux Abduraimov [va boshq.]; muharrir H. Abdullayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 224 b.

Elektron ta'lim resurslari:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5085887?ONDATE2=26.03.2021&ac>
2. <https://lex.uz/docs/-4545884?ONDATE2=09.10.2019&action=compare>
3. <https://lex.uz/docs/5013007?ONDATE=24.09.2020&ONDATE2=21.04.2021&action=compare>
4. <https://lex.uz/docs/-6008663>

Baholash mezonlari

Kirish sinovi o'g'zaki o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo'yiladigan talablar
86–100	Berilgan savolga to'liq javob bergan. Nazariy ma'lumotlarni yoritishda xatolik va chalkashlikka yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71–85	Savolning mohiyatini tushungan. Nazariy ma'lumotlarni yoritishda ayrim xatolikka yo'l qo'yilgan. Mustaqil ravishda mushohada yuritilgan. Amaliy misollar keltirilgan. Qisqacha xulosa bergan. Fikr ifodalashda juz'iy kamchilikka yo'l qo'ygan.

55–70	Savol mohiyatini tushungan. Nazariy ma'lumotlarni yoritishda bir necha marta xatolikka yo'l qo'yilgan. Mustaqil mushohada yuritilmagan. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan. Fikr ifodalashda bir necha bor kamchilikka yo'l qo'ygan.
0–54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

NAMUNAVIY SAVOLLAR¹

1-yo'nalish

1. Til o'qitishda tasavvur, tasvir va ta'rif uyg'unligi.
2. MDH davlatlari yoki uzoq xorijda til o'qitish tajribasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni mohiyati.
4. Ona tili va ikkinchi tilni o'qitishning nazariy asoslarini tahlil qilish.
5. Til ta'limi metodologiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
6. Lingvodidaktikaning predmeti va vazifalarini belgilash.
7. Til o'qitish metodikasining ilmiy kategoriyalari.
8. Milliy qadriyatlar va til siyosati o'rtasidagi uyg'unlik.
9. Metodik paradigmalarning rivojlanish bosqichlari hamda ilmiylik va amaliyot uyg'unligi.
10. Innovatsion yondashuvlar orqali til ta'limining zamonaviy modelini shakllantirish masalalari.

2-yo'nalish

1. Til o'qitish jarayonining didaktik tizimi va uning asosiy komponentlari.
2. Ona tili darslarida o'quvchilar faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan metodlar.
3. Ikkinchi tilni o'qitishda interaktiv metodlarning didaktik imkoniyatlari.
4. Til o'rgatishda o'qitish tamoyillari.
5. Ona tili ta'limida muammoli o'qitish usullari.
6. Til ta'limida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish.
7. Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish.
8. Ikkinchi tilni o'rgatishda til ko'nikmalarining integratsiyasi.
9. Ona tili darslarida differensial yondashuvni amalga oshirish usullari.

¹ **Izoh.** Imtihonda har bir yo'nalishdan savol beriladi.

10. Ona tili darsida tahlil, muhokama va refleksiya faoliyatini tashkil etish.
11. Ona tili va ikkinchi til o'qitishda integrativ yondashuv.
12. Tilni o'qitishda o'quv dasturi va dars maqsadi o'rtasidagi bog'liqlik.
13. Til ta'limi standartlari. Milliy va xorij standartlari tahlili.
14. Ona tili ta'limi orqali shaxs ma'naviyatini shakllantirish.
15. Til o'qitish jarayonida axloqiy va estetik qadriyatlarni singdirish.
16. Ikkinchi til o'rganishda tolerantlik va madaniyatlararo muloqot.
17. Ona tili ta'limida milliy g'oya va vatanparvarlik tarbiyasi.
18. Til darslarida ma'naviy tarbiya berish imkoniyatlari.
19. Ikkinchi tilni o'rgatishda madaniy kontekstni hisobga olish tamoyili.
20. Ona tili ta'limida nutq madaniyati va axloqiy fazilatlarni shakllantirish.
21. Til o'qitishda o'quvchi shaxsiga individual yondashuv.
22. Ona tili darslarida ijtimoiy faollikni shakllantirish.
23. Ikkinchi til o'rganishda madaniy identifikatsiya jarayoni.
24. Til ta'limi orqali hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari.
25. Ona tili ta'limida o'qituvchi shaxsi.
26. Ikkinchi tilni o'rganishda ichki va tashqi motivatsiya.
27. Ona tili ta'limida estetik tarbiya.
28. Til ta'limida xorijiy tajribalardan foydalanish tamoyillari.

3-yo'nalish

1. Til o'qitish metodikasida ilmiy-tadqiqot jarayonining bosqichlari.
2. Ona tili o'qitishdagi muammoni ilmiy nuqtayi nazardan aniqlash usullari.
3. Til o'rganish jarayonida kuzatuv va tajriba metodlarining o'ziga xosliklari.
4. Til o'qitishdagi empirik tadqiqotlardan olingan natijalarni tahlil qilish usullari.
5. Ikkinchi tilni o'rganish bo'yicha eksperimental tadqiqot loyihasi tuzish bosqichlari.
6. Til ta'limida ilmiy gipoteza yaratish va uni tekshirish jarayoni.
7. Til o'rganishdagi motivatsion omillarni aniqlash bo'yicha so'rovnoma tuzish usullari.
8. Ona tili ta'limida tadqiqot natijalarini tahlil qilishda statistik usullardan foydalanish imkoniyatlari.
9. Til ta'limi bo'yicha dissertatsiya ishining tarkibiy qismlari.
10. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari.
11. Til ta'limi sohasidagi innovatsion tadqiqot yo'nalishlari.
12. Ona tili o'qitish metodikasida tadqiqot etikasi tamoyillari.
13. Til o'qitish bo'yicha ilmiy maqola yozish jarayoni bosqichlari.
14. Pedagogik tadqiqotlarda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish.

4-yo‘nalish

1. Ona tili o‘qitishda tilni o‘zlashtirish jarayonining psixologik mexanizmlari.
2. Ikkinchi tilni o‘rganishda motivatsiya va ehtiyoj o‘rtasidagi bog‘liqlik.
3. Ona tili darslarida bilish jarayonlarini faollashtirish usullari.
4. Ikkinchi til o‘rganishda individual farqlarni hisobga olishning psixologik asoslari.
5. Tilni o‘zlashtirishda diqqat va xotiraning roli.
6. Ona tili darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik shartlari.
7. Ikkinchi tilni o‘rganishda affektiv omillar.
8. Til o‘qituvchisining kommunikativ madaniyati va empatiya qobiliyati.
9. Ona tili o‘rganishda o‘z-o‘zini baholash va refleksiya jarayonining psixologik asoslari.
10. Til o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotning psixologik jihatlari.
11. Ikkinchi tilni o‘rganishda stress holatlarini yengish yo‘llari.
12. Ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish.
13. Ikkinchi tilni o‘rganishda metakognitiv strategiyalarning psixologik asoslari.
14. Til ta’limida o‘zini boshqarish va o‘zini rag‘batlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari.
15. Ona tili o‘qituvchisining psixologik kompetensiyasi va kasbiy barqarorligi.

5-yo‘nalish

1. Ona tili o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari.
2. Ikkinchi til o‘qitishda masofaviy ta’limning afzalliklari.
3. Til o‘rganishda “hayot davomida ta’lim olish” g‘oyasi.
4. STEAM asosida til o‘qitishning didaktik imkoniyatlari.
5. Inklyuziv ta’limda til o‘qituvchisining roli va metodik yondashuvlari.
6. Ona tili ta’limida gender tenglik va inklyuzivlik tamoyillari.
7. Ikkinchi til o‘rganishda madaniyatlararo kommunikatsiya.
8. Til o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.
9. Ona tili ta’limida onlayn platformalar orqali o‘qitish tajribalari.
10. Til o‘rganish jarayonida “gamifikatsiya” texnologiyasi.
11. Ona tili va ikkinchi til o‘qitishda raqamli baholash tizimlari.
12. XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda til o‘qituvchisining roli.
13. Til ta’limi jarayonida sun’iy intellektga asoslangan o‘qitish modellari.
14. Ona tili darsini rejalashtirishda til ko‘nikmalari integratsiyasi.

15. Ikkinchi tilni o'rgatishda kommunikativ vazifalarga asoslangan mashqlar.
16. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.
17. Til o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etish.
18. Ikkinchi tilni o'rganishda refleksiya mashqlarining ahamiyati.
19. Ona tili darslarida o'qitish strategiyalarini tanlash mezonlari.
20. Til o'qitishda tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish mashqlari.
21. Ona tili o'qituvchisining dars monitoringi jarayonidagi faoliyati.
22. O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini baholash usullari.
23. Ona tili darslarini loyihaviy o'qitish asosida tashkil etishning afzalliklari.
24. Ona tili ta'limida nutqiy malakalarni baholash mazmuni, shakllari va mezonlari.
25. O'quvchilar bilimini nazorat qilishda qo'llanadigan texnologiyalar.
26. Test, testlarning turlari va ularni tashkil qilish texnologiyasi.
27. Til o'qitishda 4K yondashuvini qo'llashning didaktik imkoniyatlari.